XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 11 - yanvar VI-68-1-2-208-K/23 Kogon shahar hokimligi

Kogon shahri bo‘yicha 2023-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121-sonli Farmoni hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 01/06/20-02-32/22-sonli va viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 19/10-106895-sonli qo‘shma xatlariga asosan Kogon shahri bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2023-yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 01/06/20-02-32/22-sonli va viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 19/10-106895-sonli qo‘shma xatlariga asosan Kogon shahri bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 33,6 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 275,0 so‘m belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (N.Eshmurodov) hamda shahar davlat soliq inspeksiyasi (K.Axmadova)ning mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan shahar mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2023-yilda shahar bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘inlarinig iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha

2023-yilda Kogon shahri uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalla fuqarolar yig‘inlarinig iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) 2023-yilda Kogon shahar uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashlari 2022-yil 10-martdagi VI-55-46-2-208-K/22-sonli qarorining 1 va 2-ilovasi 2023-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Shahar hokimligi matbuot kotibi (M.Narzilloyev), “Kogon hayoti” gazetasi tahririyati (Z.Xalilova)larga:

Kogon shahar bo‘yicha 2023-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini ommaviy axborot vositalarida va shahar hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Zokirov zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

xokim **H.H.Davlatov**

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-68-1-2-208-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2023-yilda mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T.R	MFY nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1	Arabxona MFY	1,05	33 600 000.0
2	Bunyodkor MFY	1,05	33 600 000.0
3	Maxtum Quli MFY	1,05	33 600 000.0
4	Zirabod MFY	1,05	33 600 000.0
5	Furqat MFY	1,05	33 600 000.0
6	Abdulla Qodiriy MFY	1,05	33 600 000.0
7	Alisher Navoiy MFY	1,05	33 600 000.0
8	Ziyokor MFY	1,05	33 600 000.0
9	Xo‘ja Bargi MFY	1,05	33 600 000.0
10	Bobur MFY	1,05	33 600 000.0
11	Adolat MFY	1,05	33 600 000.0
12	Temiryo‘lchi MFY	1,05	33 600 000.0
13	Amir Temur MFY	1,05	33 600 000.0
14	Istiqlol MFY	1,05	33 600 000.0
15	Navzirabod MFY	1,05	33 600 000.0
16	Buxoroi Sharif MFY	1,05	33 600 000.0
17	Do‘stlik MFY	1,05	33 600 000.0
18	Beruniy MFY	1,05	33 600 000.0
19	Turkiston MFY	1,05	33 600 000.0

20	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,05	33 600 000.0
21	Mustaqillik MFY	1,05	33 600 000.0
22	Vatanparvar MFY	1,05	33 600 000.0

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-68-1-2-208-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) 2023-yilda mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsientlar

T.R	MFY nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori (0.7-3 gacha)	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Arabxona MFY	0.96	275,0
2	Bunyodkor MFY	0.96	275,0
3	Mahtum Quli MFY	0.96	275,0
4	Zirabod MFY	0.96	275,0
5	Furqat MFY	0.96	275,0
6	Abdulla Qodiriy MFY	0.96	275,0
7	Alisher Navoiy MFY	0.96	275,0
8	Ziyokor MFY	0.96	275,0
9	Xo‘ja Bargi MFY	0.96	275,0
10	Bobur MFY	0.96	275,0
11	Adolat MFY	0.96	275,0
12	Temiryo‘lchi MFY	0.96	275,0
13	Amir Temur MFY	0.96	275,0
14	Istiqlol MFY	0.96	275,0
15	Navzirabod MFY	0.96	275,0
16	Buxoroi Sharif MFY	0.96	275,0
17	Do‘stlik MFY	0.96	275,0
18	Beruniy MFY	0.96	275,0
19	Turkiston MFY	0.96	275,0
20	Mirzo Ulug‘bek MFY	0.96	275,0
21	Mustaqillik MFY	0.96	275,0
22	Vatanparvar MFY	0.96	275,0